



« 15 » 11 2024 yil

№ 63

Toshkent sh.

**“O‘zenergosotish” aksiyadorlik jamiyatida korrupsiyaga oid
huquqbuzarliklarning oldini olish va normativ-huquqiy bazani mustahkamlash
chora-tadbirlari to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 6-iyuldagi “Korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatini samarali tashkil etishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PQ-5177-son Qarori va O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish milliy kengashi majlisining 4-sonli Bayoni ijrosini ta‘minlash, shuningdek “O‘zenergosotish” aksiyadorlik jamiyatida korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarning oldini olish va normativ-huquqiy bazani mustahkamlash maqsadida

BUYURAMAN:

1. “O‘zenergosotish” aksiyadorlik jamiyati tizimida Korrupsiyaga qarshi kurashish, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarning oldini olish bo‘yicha ichki nazorat vazifasi Komplaens nazorati bo‘limiga (keyingi o‘rinlarda - Bo‘lim) yuklatilganligi ma‘lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Quyidagilar:

“O‘zenergosotish” aksiyadorlik jamiyatining korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha siyosati 1-ilovaga muvofiq;

“O‘zenergosotish” aksiyadorlik jamiyatining manfaatlar to‘qnashuvini boshqarish bo‘yicha nizom 2-ilovaga muvofiq;

“O‘zenergosotish” aksiyadorlik jamiyatining korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining holati to‘g‘risidagi hisobotni shakllantirish va taqdim etish bo‘yicha nizom 3-ilovaga muvofiq;

“O‘zenergosotish” aksiyadorlik jamiyatining korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash uslubiyoti 4-ilovaga muvofiq;

“O‘zenergosotish” aksiyadorlik jamiyatining korrupsiyaga qarshi tartib-
taomillarning samaradorligini monitoring va nazorat qilish
uslubiyoti 5-ilovaga muvofiq;

“O‘zenergosotish” aksiyadorlik jamiyatining aloqa kanallari orqali korrupsiyaviy xatti-harakatlar to‘g‘risida kelib tushgan xabarlarni qabul qilish va ko‘rib chiqish reglamenti 6-ilovaga muvofiq;

“O‘zenergosotish” aksiyadorlik jamiyati xodimlarining korrupsiyaviy hatti-harakatlari va odob-ahloq qoidalarini buzish holatlari ustidan xizmat tekshiruvlari o‘tkazish bo‘yicha reglamenti 7-ilovaga muvofiq;

“O‘zenergosotish” aksiyadorlik jamiyatining kontragentlarni tekshirishga oid yo‘riqnoma 8-ilovaga muvofiq;

“O‘zenergosotish” aksiyadorlik jamiyatining ishga qabul qilinayotgan nomzodlarni tekshirish bo‘yicha yo‘riqnoma 9-ilovaga muvofiq;

“O‘zenergosotish” aksiyadorlik jamiyatining xodimlarining etika va korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida o‘qitilishini tashkil qilish bo‘yicha yo‘riqnoma 10-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni va moliyaviy qoidabuzarliklarni oldini olish, manfaatlar to‘qnashuviga yo‘l qo‘ymaslik choralarni ko‘rish bo‘yicha Komplaens nazorati bo‘limi (F.Tadjibaev) tegishli chora tadbirlar amalga oshirilsin.

4. Mazkur buyruq ijrosini nazorat qilish Boshqaruv raisining birinchi o‘rinbosari Sh.Karabayev zimmasiga yuklatilsin.

Boshqaruv raisi



J. Obidjonov